


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1- aprel holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2026-yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 29,7 mingtani tashkil etadi, shundan 25,8 mingtasi yoki 86,9 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2025 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 110,4 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	29 738	25 989	25 803
2025	27 206	23 578	23 382
2024	30 093	26 630	26 475
2023	29 292	25 932	25 775
2022	31 495	28 117	27 952

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida – 27,1 foiz, G'ijduvon – 10,0 foiz, Romitan – 9,2 foiz, Jondor – 8,2 foiz va Buxoro – 7,7 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Romitan – 90,5 foiz va 90,0 foiz, Kogon – 90,2 va 89,8 foiz, Jondor – 89,2 foiz va 89,1 foiz hamda Buxoro – 88,4 foiz va 88,0 foiz tumaniga to'g'ri keldi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Olot tumani	1 265	1 079	1 073
Buxoro tumani	2 283	2 019	2 008
Vobkent tumani	1 798	1 564	1 557
G'ijduvon tumani	2 981	2 603	2 584
Kogon tumani	1 596	1 440	1 433
Qorako'l tumani	1 426	1 145	1 130
Qorovulbozor tumani	647	563	550
Peshku tumani	1 631	1 396	1 389
Romitan tumani	2 736	2 476	2 463
Jondor tumani	2 426	2 165	2 161
Shofirkon tumani	1 848	1 572	1 567
Buxoro shahar	8 063	7 064	6 993
Kogon shahar	1 038	903	895

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026-yil 1- aprel holatiga 28,5 foizni (32,6 foiz va 32,7 foiz) tashkil etdi.



Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 11,1 % (12,7 % va 12,7 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 12,0 % (13,6 % va 13,4 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 51,6 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 560	3 521	3 508
Sanoat	3 312	3 304	3 265
Qurilish	2 199	2 180	2 156
Savdo	8 463	8 460	8 430
Tashish va saqlash	2 594	2 592	2 583
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 141	2 139	2 132
Axborot va aloqa	368	351	349
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 018	756	751
Boshqa turlar	6 083	2 686	2 629

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1- aprel holatiga ko'ra, 26,0 mingta faol tijorat korxonalaridan 21,3 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	21 330	82,1
Xususiy korxonalar	2 086	8,0
Oilaviy korxonalar	2 365	9,1
Aksiyadorlik jamiyati	32	0,1
Boshqalar	176	0,7

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 403 ta korxonalardan 128 tasi qo'shma korxonalar va 275 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2026-yil 1- aprel holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 70 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 126 tadan 158 taga, (o'sish 32 taga), sanoat sohasida 98 tadan 104 taga (o'sish 6 taga) va boshqa turlar sohasida 33 tadan 44 taga (o'sish 11 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	403	128	275
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28	16	12
Sanoat	104	47	57
Qurilish	26	6	20
Savdo	158	33	125
Tashish va saqlash	10	3	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	24	11	13
Axborot va aloqa	3		3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	2	4
Boshqa turlar	44	10	34

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 86 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,3 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (8,7%), Turkiya (10,4%), Qozog'iston (1,5%) va Janubiy Koreya (2,7%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	403	128	275
Xitoy	86	22	64
Rossiya	35	19	16
Turkiya	42	21	21
Qozog'iston	6	1	5
Afg'oniston	23	3	20
Janubiy Koreya	11	7	4
AQSH	7	5	2
BAA	8	3	5
Germaniya	7	5	2
Tojikiston	7	1	6
Qirg'iz Respublikasi	4	2	2
Hindiston	18	3	15
Ozarbayjon	4	1	3
Buyuk Britaniya	5	2	3
Belorusiya	2	2	
Turkmaniston	84	12	72
Pokiston	6		6
Boshqa davlatlar	48	19	29

IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- dekabrda "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
N. Fuzaylova
65 223-83-20 (8060)

Maznil:
200100, Buxoro sh.,
Gazli shoh ko'chasi, 32-uy
